

OILADA ERTA AJRIMNI BOLALAR PSIXALOGIYASIGA TA`SIRI**Ergashova Durdona Abduroxim qizi****Namangan Davlat Universiteti talabasi****Email: gul861779@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17181304>**

Annotatsiya: Ushbu maqolada oilada erta ajrimning bolalar psixologik rivojlanishiga ta`siri nazariy, tahliliy va amaliy jihatdan o`rganiladi. Mavzuning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda ajrimlar soning ortishi nafaqat ijtimoiy muammo, balki bolalarning ruhiy barqarorligi va ijtimoiy moslashuvi uchun ham jiddiy xavf tug`dirmoqda. Tadqiqodning maqsadi – erta ajrimning bolalarning emotsional, kognitiv va ijtimoiy rivojiga ta`sirini aniqlash hamda ularning psixologik qo`llab – quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqishdir. Metodologik asos sifatida E. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi, L. Vigotskiyning ijtimoiy – madaniy rivojlanish qarashlari va J. Piagetning kognitiv rivojlanish bosqichlari qo`llanildi. Tahlil natijalari shuni ko`rsatadiki, oilada erta ajrim go`daklik davridan o`smirlikkacha bo`lgan bosqichlarda emotsional beqarorlik ijtimoiy chekinish va ta`limiy qiyinchiliklarni kuchaytiradi. Amaliy tavsiyalar sifatida ota-onalar mas`uliyatini oshirish, psixologik maslahat xizmatlarini rivojlantirish hamda maktab va ijtimoiy qo`llab – quvvatlash dasturlarini kengaytirish zarurligi asoslab beriladi.

Annotation: This article examines the impact of early divorce in the family on children's psychological development from theoretical, analytical, and practical perspectives. The relevance of the topic lies in the fact that the growing number of divorces today not only poses a social problem but also creates serious risks for children's mental stability and social adaptation. The aim of the study is to identify the influence of early divorce on children's emotional, cognitive, and social development, as well as to develop mechanisms for their psychological support. As the methodological basis, E. Erikson's theory of psychosocial development, L. Vygotsky's views on socio-cultural development, and J. Piaget's stages of cognitive development were applied. The analysis shows that early divorce, starting from infancy, increases emotional instability, social withdrawal, and educational difficulties in children. Practical recommendations emphasize the importance of enhancing parental responsibility, developing psychological counseling services, and expanding school-based and social support programs.

Аннотация: В данной статье рассматривается влияние раннего развода в семье на психологическое развитие детей с теоретической, аналитической и практической точек зрения. Актуальность темы заключается в том, что рост числа разводов сегодня является не только социальной проблемой, но и создаёт серьёзные риски для психической устойчивости и социальной адаптации детей. Цель исследования – выявить влияние раннего развода на эмоциональное, когнитивное и социальное развитие ребёнка, а также разработать механизмы психологической поддержки. Методологической основой послужили теория психосоциального развития Э. Эриксона, социокультурные взгляды Л. Выготского и этапы когнитивного развития Ж. Пиаже. Результаты анализа показывают, что ранний развод, начиная с младенческого возраста, усиливает эмоциональную нестабильность, социальную замкнутость и учебные трудности у детей. В качестве практических рекомендаций обосновывается необходимость повышения ответственности родителей, развития психологических

консультационных служб, а также расширения школьных и социальных программ поддержки.

Kalit soʻzlar: Erta ajrim, bola psixalogiyasi, tushkunlik, yolgʻizlik hissi, emotsional beqarorlik, kognitiv rivojlanish, psixologik yordam, ijtimoiy moslashuv.

Kirish: Oila - muqaddas dargohdir. Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy institutidir. Bola tarbiyasi va psixologik rivojlanishi, avvalo, oiladagi barqarorlik va mehr-muruvvatga bogʻliqdir. Ammo oilalarda baʼzi hollarda erda ajrimlar yuzaga kelayotganini koʻrishimiz mumkin. Statistik maʼlumotlarga qaraganimizda 2025-yil dastlabki choragida ajralishlar soni 11.5 mingtani tashkil etgan. Nikohdan ajralishlarning oʻrtacha yoshi erkaklar uchun 37.4 yoshni, ayollar uchun esa 32,5 yoshni tashkil etgan. Adliya vazirligi maʼlumotlariga koʻra 2024- yilda rasmiylashtirilgan ajrimlarning 4-5 foizi bir yilgacha, 40 foizi esa besh yilgacha bir oila boʻlib yashaganlarni tashkil etgan. Bu maʼlumotlar oilaviy ajrimlarni deyarli yarim ulushi oila qurganiga 5 yil toʻlmagan yosh oilalar ekanligini koʻrsatib turibdi. Yosh oilalardagi ziddiyatlar koʻpincha tajribasizlik, iqtisodiy qiyinchiliklar, shaxsiy va oilaviy qadriyatlar oʻrtasidagi nomutanosiblik hamda emotsional muvozanatning yetishmasligi oqibatida kelib chiqadi.

Mazkur holat nafaqat er-xotin munosabatlarining buzilishiga, balki eng avvalo bolalarning emotsional, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Tadqiqodlar shuni koʻrsatadiki, erda yoshda ota-onasining ajrashuviga guvoh boʻlgan bolalarda xavotir, oʻziga ishonchsizlik, oʻqishdagi qiyinchiliklar, ijtimoiy munosabatlarda muammolar va agressiv xulq – atvor tez-tez kuzatiladi. Shu bilan birga, ular kelajakda mustahkam oila qurish va sogʻlom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda ham muayyan qiyinchiliklarga duch keladilar.

Shu sababli erda ajrimning oqibatlarini chuqur oʻrganish, bolalarning psixologik himoyasini taʼminlash hamda psixologik qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunda dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur maqola aynan shu masalaga qaratilib, erda ajrimning bolalar rivojiga taʼsirini aniqlash hamda ularni ijtimoiy-psixologik jihatdan qoʻllab-quvvatlashning samarali yoʻllarini izlashni maqsad qilib oladi.

Masalani ilmiy tahlil qilishda psixalogiya fanida shakllangan rivojlanish nazariyalari muhim metodologik asos boʻlib xizmat qiladi.

Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi

Erikson (1950) inson rivojlanishini sakkizta bosqichga ajratib, har birida shaxs muayyan psixosotsial inqirozlarni yengib oʻtishi zarurligini taʼkidlagan. Ajrim holatida voyaga yetayotgan bolalarda ayniqsa dastlabki bosqichlarda “ishonch – ishonchsizlik” hamda “mustaqillik – shubha” kabi ziddiyatlar kuchayadi. Ota-onaning ajralishi bolaning asosiy emotsional tayanchini zaiflashtirib, uning oʻziga boʻlgan ishonchi, tashabbuskorligi va ijtimoiy faolligini cheklashi mumkin.

Vigotskiyning ijtimoiy-madaniy rivojlanish nazariyasi

Vigotskiy (1934) rivojlanish jarayonida ijtimoiy muhit va madaniy vositalarning rolini alohida taʼkidlagan. U “yaqin rivojlanish zonasi” tushunchasini kiritib, bola yangi bilim va koʻnikmalarni kattalar hamda tengdoshlari bilan muloqot orqali egallashini koʻrsatadi. Erda ajrimda esa bolaning ota-onasidan biri bilan aloqasi qisqaradi, bu esa ijtimoiy tajribani toʻliq oʻzlashtirish imkoniyatini kamaytiradi. Natijada bola ijtimoiy rollarni toʻlaonli bajarishda va jamiyat qadriyatlarini ichkilashtirishda qiyinchiliklarga duch keladi.

Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi

Piaget (1952) bola tafakkurini bosqichma-bosqich rivojlanuvchi jarayon sifatida talqin qilib, to'rtta bosqichni ajratgan: sensomotor, preoperatsion, konkret operatsion va formal operatsion. Ajrim bu bosqichlarda turlicha oqibatlariga olib kelishi mumkin. Masalan, preoperatsion davrdagi bola ajrim sabablarini tushunmagan holda o'zini aybdor his qilishi ehtimoli yuqori. Konkret operatsion davrda u ajrimni real voqelik sifatida qabul qilsa-da, uni izohlashda chalkashliklarga duch keladi. Formal operatsion bosqichda esa ajrimning ijtimoiy va shaxsiy oqibatlarini tushunib yetadi, bu esa oilaga nisbatan ishonchsizlik yoki pessimist qarashlarni kuchaytirishi mumkin.

Shunday qilib, Erikson, Vigotskiy va Piaget nazariyalari asosida shuni ta'kidlash mumkinki, erta ajrim bolalarning shaxsiy rivojida uch asosiy yo'nalishda salbiy oqibatlariga olib keladi: emotsional beqarorlik, ijtimoiy tajriba yetishmovchiligi va kognitiv chalkashliklar. Shu bois, bunday bolalarni psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirish ularning sog'lom rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Nazariy manbalar tahlili erta ajrimning bolalarning emotsional, kognitiv va ijtimoiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasiga asoslanib aytish mumkinki, ajrim sharoitida bola ishonch va barqarorlikni yo'qotishi, shaxsiy tashabbuskorlik va o'ziga ishonch hissi zaiflashishi mumkin (Erikson, 1950). Vygotskiy ta'limotiga ko'ra, ota-onalardan birining roli susayishi natijasida bola ijtimoiy tajriba va madaniy qadriyatlarni o'zlashtirishda cheklanishlarga duch keladi, bu esa ijtimoiy rollar shakllanishini sekinlashtiradi (Vygotskiy, 1934). Piaget nazariyasi nuqtai nazaridan esa, ajrim bolaning voqelikni idrok etishida chalkashliklar keltirib chiqaradi; ba'zi bosqichlarda bola ajrimni noto'g'ri talqin qilib, o'zini aybdor deb hisoblash ehtimoli yuqori (Piaget, 1952).

Umumlashtirilgan holda aytish mumkinki, erta ajrim oqibatlari quyidagi yo'nalishlarda ko'proq namoyon bo'ladi:

- emotsional rivojlanishda xavotir va depressiv holatlar;
- ijtimoiy rivojlanishda muloqotdagi cheklanishlar va ijtimoiy rollarni egallashda qiyinchiliklar;
- kognitiv rivojlanishda sabab-oqibat aloqalarini noto'g'ri tushunish va oilaviy qadriyatlarga nisbatan salbiy stereotiplarning shakllanishi.

Shu bois, psixologik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Bunda oilaviy maslahat xizmatlari, maktab psixologlari faoliyatini kuchaytirish, ota-onalar uchun treninglar tashkil etish hamda ijtimoiy yordam tizimini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv bolalarda emotsional barqarorlikni tiklash, ijtimoiy moslashuvni qo'llab-quvvatlash va kognitiv rivojlanishni izchil davom ettirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Erikson, E. H. (1950). *Childhood and Society*. New York: Norton.
2. Vygotsky, L. S. (1934/1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
3. Piaget, J. (1952). *The Origins of Intelligence in Children*. New York: International Universities Press.
4. G'oziyev E. (2010). Umumiy psixalogiya.
5. Yusupov, E. (2015). Oila va nikoh psixalogiyasi.
6. Raxmatova, R.M. (2020). Oila psixalogiyasi